



MATBUOT TILIDA IJTIMOIIY ADOLAT DISKURSINING LINGVISTIK
STRATEGIYALARI

Pardayeva Sojida Ahmatovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Orcid 0009-0009-5900-1108

Annotatsiya. Ushbu maqola matbuot tilida ijtimoiy adolat diskursining lingvistik strategiyalarini tahlil qiladi. Ijtimoiy adolat masalalari ommaviy axborot vositalarida metafora, emotsional til, ritorik savollar, inkluziv til va narrativ uslublar orqali yoritilishi ko'rib chiqiladi. Ushbu strategiyalar jamoatchilik ongini shakllantirish, ijtimoiy harakatlarni rag'batlantirish va jamiyatdagi tarangliklarni yumshatishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston matbuotidagi diskurs davlat siyosati va milliy qadriyatlar bilan bog'liq holda shakllanib, inkluziv tilning dastlabki bosqichda ekanligi ta'kidlanadi. Maqola lingvistik strategiyalarni axloqiy va mas'uliyatli qo'llash zarurligini ko'rsatib, kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo'nalishlarni belgilaydi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy adolat, matbuot tili, lingvistik strategiyalar, metafora, emotsional til, inkluziv til, narrativ uslub, O'zbekiston matbuoti, diskurs tahlili.

Abstract. This article analyzes the linguistic strategies employed in the discourse of social justice within media language. It examines how social justice issues are articulated through metaphors, emotional language, rhetorical questions, inclusive language, and narrative styles in the press. These strategies play a crucial role in shaping public consciousness, encouraging social activism, and mitigating societal tensions. In the context of Uzbekistan's media, the discourse is closely tied to state policies and national values, with inclusive language still in its early stages of development. The article underscores the importance of ethical and responsible use of linguistic strategies and outlines directions for future research.

Keywords: social justice, media language, linguistic strategies, metaphor, emotional language, inclusive language, narrative style, Uzbekistan media, discourse analysis.

Аннотация. Статья посвящена анализу лингвистических стратегий, используемых в дискурсе социальной справедливости в языке СМИ. Рассматривается, как вопросы социальной справедливости выражаются через метафоры, эмоциональный язык, риторические вопросы, инклюзивный язык и нарративные стили. Эти стратегии играют ключевую роль в формировании общественного сознания, стимулировании социальной активности и смягчении социальных напряжений. В контексте СМИ Узбекистана дискурс тесно связан с государственной политикой и национальными ценностями, при этом инклюзивный язык находится на начальной стадии развития. Статья подчеркивает важность этичного и ответственного применения лингвистических стратегий и определяет направления для будущих исследований.



Ключевые слова: *социальная справедливость, язык СМИ, лингвистические стратегии, метафора, эмоциональный язык, инклюзивный язык, нарративный стиль, СМИ Узбекистана, дискурсивный анализ.*

Ijtimoiy adolat – zamonaviy jamiyatning yuragi, tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan orzu, shu bilan birga, doimiy munozara va kurash maydoni. Bu masalalar har bir insonning hayotiga ta'sir qilib, jamiyatning kelajagini belgilovchi muhim savollar sifatida ko'tariladi. Ommaviy axborot vositalari (OAV) ushbu murakkab diskursning asosiy sahnasi bo'lib, so'z qudrati orqali jamoatchilik ongini shakllantiradi, ijtimoiy o'zgarishlarni ilhomlantiradi va adolatsizlikka qarshi ovoz bo'lib xizmat qiladi. Matbuot tilida ijtimoiy adolat masalalari nafaqat xabar sifatida, balki ehtiyotkorlik bilan tanlangan lingvistik strategiyalar orqali yuzaga chiqadi. Bu strategiyalar – metaforaning jozibasi, emotsional tilning ta'siri yoki inkluziv iboralarning birlashtiruvchi kuchi – ma'lum bir auditoriyani ilhomlantirish, qadriyatlar va g'oyalarni targ'ib qilish yoki ijtimoiy muammolarni muhokama maydoniga olib chiqish uchun xizmat qiladi.

Ijtimoiy adolat diskursi zamonaviy jamiyatlarda tenglik, adolat, kamsitishga qarshi kurash va ijtimoiy resurslarning adolatli taqsimlanishi kabi masalalarni qamrab oluvchi muhim tahlil sohasidir [7]. Bu diskurs matbuot orqali jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va normativ qadriyatlar targ'ibotida markaziy rol o'ynaydi [2]. Ommaviy axborot vositalari (OAV) ushbu masalalarni turli yo'nalishlarda yoritib, jamoatchilik ongida ijtimoiy adolat g'oyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Matbuotda ijtimoiy adolat diskursi quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Ijtimoiy tengsizlikni tanqidiy tahlil qilish: OAV iqtisodiy, gender, etnik va boshqa turdagi tengsizliklarni ochib ko'rsatish orqali jamiyatdagi adolatsizliklarni fosh qiladi. Bu jarayonda matbuot nafaqat muammolarni aniqlaydi, balki ijtimoiy islohotlar uchun katalizator vazifasini o'taydi [8].

Marginal guruhlarini himoya qilish: Ijtimoiy cheklovlariga duch kelgan guruhlar, masalan, iqtisodiy qashshoqlik, nogironlik yoki boshqa to'siqlar tufayli jamiyat chetida qolgan shaxslarning muammolari yoritiladi. Bu yondashuv marginal guruhlarining huquqlarini himoya qilish va ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan [9].

Adolatli jamiyat g'oyasini targ'ib qilish: Teng huquqlar va imkoniyatlar tamoyillari matbuot orqali targ'ib qilinib, jamiyatda inkluzivlik va tenglikka asoslangan qadriyatlar tizimi mustahkamlanadi [3].

Ushbu masalalar matbuotda metafora, ritorik savollar, emotsional til va boshqa lingvistik strategiyalar orqali ifodalanadi. Bu strategiyalar nafaqat muammolarni ta'kidlash, balki jamoatchilikni ijtimoiy adolat masalalariga faol jalb qilish uchun muhim vosita sifatida xizmat qiladi [2].

Matbuot tilida ijtimoiy adolat diskursi turli lingvistik strategiyalar orqali yaratiladi, ular jamoatchilik ongini shakllantirish, ijtimoiy muammolarni muhokama qilish va adolat



tamoyillarini targ'ib qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi [2]. Quyida ushbu strategiyalarning asosiy turlari va ularning ta'siri tahlil qilinadi.

Metaforalar ijtimoiy adolat masalalarini oddiy, ammo chuqur ta'sirchan tarzda yetkazish uchun muhim lingvistik vositadir [5]. Masalan, *“Adolat – davlatchilikning mustahkam poydevoridir”* [11] Ushbu jumlada *“poydevor”* metaforik birligi orqali jamiyat ijtimoiy adolatga tayanadigan bir butun qurilma sifatida talqin qilinmoqda. Bu tasvir orqali adolat jamiyatning asosi, uning mustahkamligi esa ijtimoiy tizimning bardavomligiga bog'liq degan g'oya kuchli ta'sir bilan yetkaziladi. Shu tarzda, murakkab ijtimoiy-huquqiy tushuncha — ijtimoiy adolat — oddiy va tasavvurga oson singadigan obraz orqali ifodalanadi. Lakof va Jonson ta'kidlaganidek, *“our ordinary conceptual system is fundamentally metaphorical in nature”* [5] — ya'ni, kundalik fikrlashimiz ko'pincha metaforik asosda quriladi. Aynan shu sababli ijtimoiy adolat singari mavhum tushunchalar ham *“asos”*, *“yo'l”*, *“kurash”*, *“binoning poydevori”* kabi real tasavvurlar orqali bayon qilinadi [5].

Metaforalar nafaqat tushunchalarni soddalashtiradi, balki ijtimoiy adolatsizlikning hissiy va axloqiy o'lchamlarini ta'kidlaydi, bu esa jamoatchilikning e'tiborini jalb qilishda samarali hisoblanadi.

Ijtimoiy adolat masalalari matbuotda ko'pincha emotsional til orqali yoritiladi, bu o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish va ularni faol ishtirok etishga undashga xizmat qiladi [9]. *“Bizda bir necha 10 yillar davomida «fuqaro huquqi»ga ustuvorlik berildi, adolat huquqidan uzoqlashdik, din va diyonatni huquqdan yiroqlashtirdik.”* [10] Bu jumlada *“ustuvorlik berildi”*, *“uzoqlashdik”*, *“yiroqlashtirdik”* kabi ifodalar orqali o'tmishdagi siyosiy yondashuvlar tanqid qilinmoqda. Bu tanqidiy yondashuv o'quvchining adolatga bo'lgan ehtiyojini uyg'otadi va uni ijtimoiy o'zgarishlarga faol ishtirok etishga undaydi.

Bu borada berilgan fikrlarga qo'shimcha sifatida Vodak va Meyerning bu haqidagi fikriga e'tibor qaratsak, *“diskurs nafaqat til vositasi, balki hissiyotlar, mafkuralar va hokimiyat munosabatlarini ham ifodalaydi”* [9]. Bu shuni anglatadiki, matbuotdagi ijtimoiy adolat diskursida emotsional til vositalari yordamida o'quvchining shaxsiy hissiy tajribasi bilan bog'lanish orqali adolat talabi yanada ta'sirchan va ijtimoiy jihatdan faol kontekstda yoritiladi.

Ritorik savollar o'quvchilarni ijtimoiy adolatsizlik masalalari haqida chuqur o'ylashga undab, muhokama maydonini kengaytiradi [8]. Masalan, *“Nima uchun ba'zi bolalar sifatli ta'lim olish imkoniyatidan mahrum?”* degan savol o'quvchida adolatsizlik hisini kuchaytirib, muammoning axloqiy o'lchamlarini ochib beradi. Shu bilan birga, statistik ma'lumotlar, ekspert xulosalari va faktlarga asoslangan argumentlar matnning ishonchliligini oshiradi va o'quvchilarning ishonchini mustahkamlaydi.

Shuningdek, Inkluziv til ijtimoiy adolat diskursida muhim o'rin tutadi, chunki u jamiyatdagi barcha guruhlarini hurmat bilan tasvirlashga xizmat qiladi [3]. Gender-nejtral iboralar, marginal guruhlarini kamsituvchi atamalardan qochish va ijtimoiy sezgirlikni aks





ettiruvchi til uslublari OAVda tobora keng tarqalmoqda. Masalan, “nogiron shaxslar” o‘rniga “maxsus ehtiyojli shaxslar” kabi atamalar qo‘llanilishi ijtimoiy tenglik va hurmat tamoyillarini targ‘ib qiladi. Bu strategiya ijtimoiy integratsiyani mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Matbuot ko‘pincha shaxsiy hikoyalar orqali ijtimoiy adolat masalalarini yoritadi, bu esa o‘quvchida empatiya uyg‘otib, muammoni yanada yaqinlashtiradi [6]. Bunday individual tajribalar asosida qurilgan materiallar ommaviy voqelikni shaxsiy qiyofa orqali ko‘rsatadi va ijtimoiy befarqlikni kamaytiradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda yoki yangilik saytlari orqali “nogiron farzandi bilan ko‘chada qolgan ona” yoki “17 yil sudlanuvchilikda yurgan begunoh fuqaro” haqidagi hikoyalar tez-tez ommaga taqdim etiladi. Ushbu shaxsiy voqealar orqali o‘quvchi faqat ma‘lumot emas, balki emotsional tajriba ham oladi. Bu esa tilning faqat axborot vositasi emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuch ekanligini ko‘rsatadi. Feyrklou fikricha, *"media discourse constructs social identities, relationships and knowledge systems"*[1], ya'ni matbuot diskursi insoniy munosabatlar va ijtimoiy ongni shakllantiradi. Shu tariqa shaxsiy hikoyalar orqali matbuot ijtimoiy adolat g‘oyalarini chuqurroq va ta’sirchanroq yetkazadi.

Matbuot tilida qo‘llaniladigan lingvistik strategiyalar ijtimoiy adolat diskursining samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ular nafaqat jamoatchilik ongini shakllantirish, balki ijtimoiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirish va jamiyatdagi tarangliklarni yumshatish kabi keng ko‘lamli maqsadlarga erishishga yordam beradi [2].

Biroq, ushbu strategiyalarning noto‘g‘ri yoki haddan tashqari qo‘llanilishi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin [8]. Masalan, haddan tashqari emotsional til manipulyativ maqsadlarda ishlatilishi yoki muammoni soddalashtirib, uning murakkab ijtimoiy o‘lchamlarini e’tiborsiz qoldirishi mumkin. Shuningdek, metaforalar yoki narrativlar noto‘g‘ri talqin qilinsa, stereotiplarni mustahkamlashi yoki ijtimoiy guruhlarini noto‘g‘ri tasvirlashi ehtimoli mavjud. Shu sababli, lingvistik strategiyalarni qo‘llashda axloqiy va mas’uliyatli yondashuv muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston matbuotida ijtimoiy adolat diskursi davlat siyosati va milliy qadriyatlarining muhim timsoli sifatida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bu diskurs ko‘pincha jamiyatning birligi, adolat va taraqqiyot g‘oyalariga asoslanib, milliy manfaatlar va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [4]. Gender tengligi, ta’limdagi tengsizlik yoki iqtisodiy imkoniyatlar kabi masalalar matbuotda “birlik”, “adolat” va “taraqqiyot” kabi kalit so‘zlar orqali yoritiladi, bu esa davlatning ijtimoiy islohotlar dasturiga mos keluvchi narrativni shakllantiradi. Masalan, ta’lim sohasidagi tengsizlikni muhokama qiluvchi maqolalar ko‘pincha “har bir bola teng imkoniyatga ega bo‘lishi kerak” kabi ritorik iboralar bilan boyitilib, milliy qadriyatlar bilan uzviy bog‘lanadi.

O‘zbekiston matbuotining ijtimoiy adolat diskursidagi o‘ziga xos yondashuvi davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liqligi bilan ajralib tursa-da, global tendensiyalarni o‘zlashtirish va mahalliy kontekstga moslashtirish imkoniyatlari ham mavjud. Bu jarayonda lingvistik strategiyalarni yanada takomillashtirish, xususan, emotsional til, metafora va



narrativ uslublarni samarali qo'llash orqali matbuot jamoatchilikni ijtimoiy adolat masalalariga yanada faol jalb qilishi mumkin [2]. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar O'zbekiston matbuotining global ijtimoiy adolat diskursidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, matbuot tilida ijtimoiy adolat diskursi zamonaviy jamiyatning eng dolzarb masalalarini til vositasida ifodalash va jamoatchilik ongiga yetkazishning muhim vositasidir. Ushbu diskursda qo'llanilayotgan lingvistik strategiyalar – metaforalar, emotsional til, ritorik savollar, inkluziv iboralar hamda shaxsiy hikoyalar – nafaqat matnning ta'sirchanligini oshiradi, balki o'quvchining hissiy va axloqiy e'tiborini jamiyatdagi adolatsizlik muammolariga qaratadi. Ayniqsa, metaforik ifodalar orqali mavhum tushunchalar aniq va obrazli tarzda yoritilib, emotsional til esa ijtimoiy adolatga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Shu bilan birga, inkluziv til va shaxsiy hikoyalar jamiyatdagi barcha guruhlarining ovozi inobatga olib, ularni ijtimoiy hayotga jalb etish imkonini beradi.

Biroq, bu strategiyalarni qo'llashda ehtiyotkorlik zarur: haddan ortiq emotsional yondashuv yoki noto'g'ri metaforalardan foydalanish muammoni soddalashtirib yuborishi yoki stereotiplarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun matbuotdagi til siyosati nafaqat informatsion, balki axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak.

Umuman olganda, matbuot ijtimoiy adolat diskursining shakllanishida faqat axborot vositasi emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuchli ideologik va kommunikativ platforma sifatida namoyon bo'ladi. Lingvistik strategiyalar esa bu jarayonning asosiy vositalaridan biri sifatida adolat, tenglik va hamjihatlik g'oyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fairclough, N. (1995). *Media discourse*. London, England: Edward Arnold.
2. Fairclough, N. (2001). *Language and power* (2nd ed.). London, England: Longman.
3. Fraser, N. (1997). *Justice interruptus: Critical reflections on the "postsocialist" condition*. New York, NY: Routledge.
4. Karimov, I. A. (1998). *O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xayfsizlik, taraqqiyot va barqarorlik*. Tashkent, Uzbekistan: O'zbekiston.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. Chicago, IL: University of Chicago Press.
6. Polletta, F. (2006). *It was like a fever: Storytelling in protest and politics*. Chicago, IL: University of Chicago Press.
7. Rawls, J. (1971). *A theory of justice*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
8. Van Dijk, T. A. (1993). *Elite discourse and racism*. Newbury Park, CA: Sage Publications.





9. Wodak, R., & Meyer, M. (Eds.). (2009). *Methods of critical discourse analysis* (2nd ed.). London, England: Sage Publications.

10. <https://kun.uz/news/2021/04/27/sudya-fuqaro-huquqidan-inson-huquqlariga-otishi-vaqti-yetdi>

11. https://uza.uz/oz/posts/adolat-davlatchilikning-mustahkam-poydevoridir_577962